



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

2

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Аслонов С.М., Амиджанова М.М. Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
Умаров И.Ю. Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M. Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
Mamajonova N.A. Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B. Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
Bahromov Sh.F. Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A. Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
Юсупов М.Х. Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д. Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш бошқичлари.....	57
Гулямова Н.Х. Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
Arziboyeva R.S. Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
To‘raboyev Q.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
Tojiboyev I.I. Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
Xolmirzayev I.O. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
Saidova M.J. Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
Usmonova N.A. Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
Xaydarov M.T., Jannazarova G.K. Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
Худайназарова Д.Г. Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
Madaminov A.M. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
Zufarova G.A. Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
Ergashev I.I. Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
Sativaldiyeva G.X. Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
Kamilova A.N. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
Базарова Г.Г. Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
Turabov B.T. Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
Xamzaev A.N. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
Xamzaev A.N., Mirzajonov M. Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

Raximova L.Sh. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta'siri.....	141
Nosirov S.N. ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	146
Maxkamov X.M. Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	150
Hamrakulova M.F. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta'siri.....	153
Mirzayeva L.S. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo'llari.....	157
Очилов Ж.Ж. Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	160
Usubjonov Z.V. Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	165
Bekmurodov N.X. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	170
Yusupova M.B. Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	175
Xudayberdiyev O.A. Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	179
Bo'stonova N.A. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	187
Bo'stonova N.A., Nematjonova R.D. O'zbekistonda aholining daromadlari va iste'mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta'siri.....	192
Hamidova Sh.O. Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	196
Abdullayeva Z.S. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	199
Duvshatova N.K. Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	203
Усманова А.Б. Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	207
Qidirniyozov A.Sh. Uy-joy qurilishida kapital qo'yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	213
Dexkanova Sh.K. Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro'li.....	217
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. Aholining farovonligini ta'minlashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'rni.....	221
Mamatov B.S. O'zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	226
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta'minlashning asosi.	231
Aminboyev J.O. Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	235
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	241
Usmanova S.S. Innovative development of the pharmaceutical industry.....	245
Faxriddinova N.N. Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o'rni.....	250
Захирова Г. Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	254
Абдуллоев А.Ж. Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтакавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	258
Sharapova N.K. Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	264
Rahmatullayeva D.O. Demografik omillar va bandlik samaradorligi o'rtasidagi munosabatlar..	272

unumdorligini ortishiga, ishlab chiqarish hajmini oshirishga, odamlar va asbob-uskunalarining ishlamay qolish vaqtini qisqartirishga yordam beradi. Bundan tashqari, mehnat intizomini yaxshilanishiga, inson o‘z qobiliyatlarini to‘liq darajada namoyon qilishi, rivojlantirishi mumkin bo‘lgan sharoitlarni yaratishga zaruriyat tug‘iladi va bunga erishiladi [5].

Mehnatni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirish bilan bog‘liq individual chora-tadbirlar samaradorligini (boshqaruv tuzilmasi, boshqaruv va xizmat ko‘rsatish standartlaridagi o‘zgarishlar, malakali kadrlar mavjudligi) omili tahlil yordamida baholash mumkin. Shu bilan birga, korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatining yakuniy natijalarini shakllantirishga boshqa omillarning ta‘sirini bartaraf etishni ta‘minlash kerak.

Yuqoridagi fikr va mulohazalar asosida, shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, ishlab chiqilgan tavsiyalarni mulk shaklidan qat‘iy nazar barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga muntazam sistemali tatbiq etilishi barqaror rivojlanuvchi faoliyatni ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Abdukarimov B.A. Korxonalar iqtisodiyoti. -T.: «Fan» 2015 yil.
2. Abdukarimov T., Isroilov V., Pardiev M. Iqtisodiy tahlil (o‘quv qo‘llanma). – T.: «Mehnat», 2017 yil.
3. Yo‘ldoshev N.Q, Mirsaidova Sh. A, Goldman Ye.D. “Innovatsion menejment” T-2011, Darslik.
4. R. I. Gimush, F. M. Matmurodov., “Innovatsion menejment” T-2008, O‘quv qo‘llanma.
5. B. Mardonov, E. Shavqiev, Sh. Quvondiqov, “Mehnatni tashkil etish va boshqarish” O‘quv qo‘llanma, 2022.

UDK:330

MAXSUS IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATINING IJTIMOIIY VA INSTITUTSIONAL SAMARADORLIGI

СОЦИАЛЬНАЯ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН

SOCIAL AND INSTITUTIONAL EFFICIENCY OF SPECIAL ECONOMIC ZONES ACTIVITIES

Abdullayeva Zulfiya Sadullayevna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
“Biznes va boshqaruv” kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi maxsus iqtisodiy zonalarining hududiy rivojlanish, bandlikni oshirish, aholi daromadlarini ko‘paytirish hamda tadbirkorlik muhitini yaxshilashga ko‘rsatadigan ta‘sirini baholashdan iborat. Shuningdek, institutsional omillar - boshqaruv tizimi, normativ-huquqiy baza, investitsion muhit va davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorlikka ta‘siri o‘rganiladi. Tadqiqotda statistik, taqqoslama va tizimli tahlil usullaridan foydalaniladi. Natijada ijtimoiy va institutsional samaradorlikni baholash mezonlari taklif etilib, maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Maqola natijalari hududiy iqtisodiy siyosatni samarali shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: maxsus iqtisodiy zonalar, ijtimoiy samaradorlik, institutsional samaradorlik, hududiy rivojlanish, investitsion muhit, bandlik darajasi, tadbirkorlik muhiti, davlat qo‘llab-quvvatlashi, boshqaruv tizimi, iqtisodiy siyosat.

В данной статье комплексно анализируется социальная и институциональная эффективность функционирования специальных экономических зон. Основной целью исследования является оценка влияния специальных экономических зон на региональное развитие, рост занятости, увеличение доходов населения и улучшение предпринимательской среды. Особое внимание уделяется институциональным факторам — системе управления, нормативно-правовой базе, инвестиционному климату и механизмам государственной поддержки, а также их воздействию на общую эффективность. В исследовании применяются статистические, сравнительные и системные методы анализа. В результате предлагаются критерии оценки социальной и институциональной эффективности, а также разрабатываются практические рекомендации по совершенствованию деятельности специальных экономических зон. Полученные выводы имеют важное научно-практическое значение для формирования эффективной региональной экономической политики.

Ключевые слова: специальные экономические зоны, социальная эффективность, институциональная эффективность, региональное развитие, инвестиционный климат, уровень занятости, предпринимательская среда, государственная поддержка, система управления, экономическая политика.

This article provides a comprehensive analysis of the social and institutional efficiency of special economic zones. The main objective of the study is to assess the impact of special economic zones on regional development, employment growth, income generation, and the improvement of the business environment. Particular attention is given to institutional factors, including governance systems, the regulatory and legal framework, the investment climate, and state support mechanisms, as well as their influence on overall performance. The research applies statistical, comparative, and systemic analysis methods. As a result, criteria for evaluating social and institutional efficiency are proposed, and practical recommendations for improving the performance of special economic zones are developed. The findings have significant scientific and practical importance for shaping effective regional economic policy.

Keywords: special economic zones, social efficiency, institutional efficiency, regional development, investment climate, employment level, business environment, state support, governance system, economic policy.

Jahon iqtisodiyotida maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) hududiy rivojlanishni jadallashtirish, investitsiyalarni jalb etish va sanoatni modernizatsiya qilishning muhim instrumenti sifatida keng qo‘llanilmoqda. So‘nggi yillarda MIZlar nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki bandlikni ta‘minlash, aholi daromadlarini ko‘paytirish hamda infratuzilmani rivojlantirish orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynamoqda [1]. Shu bilan birga, ularning samaradorligi ko‘p jihatdan institutsional muhit - boshqaruv sifati, normativ-huquqiy baza, investorlar huquqlarining kafolatlanganligi va davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlariga bog‘liq ekani ta‘kidlanadi [2].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, MIZlarning muvaffaqiyati faqat soliq imtiyozlari bilan emas, balki samarali institutsional boshqaruv va shaffof tartibga solish tizimi bilan belgilanadi [3]. Rivojlanayotgan mamlakatlarda MIZlar hududlararo tafovutlarni kamaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va eksport salohiyatini oshirish vositasi sifatida qaralmoqda [4]. Shunday sharoitda MIZlar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligini kompleks baholash, ularning hududiy rivojlanishga ta‘sirini aniqlash hamda takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilash dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Tadqiqotda Xorazm viloyatidagi “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonasi tanlab olingan bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi PF-4931-sonli Farmoniga asosan tashkil qilingan. EIZning umumiy yer maydoni 366,39 gektarni tashkil qiladi, viloyatimizning 5 ta tumanida 10 ta hududida o‘z faoliyatini olib boradi. Loyihalar joylashtirilgan umumiyer maydoni umumiy 59,42 gektarni tashkil qiladi.

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 2-son 2026 yil

2021-2026 yil 1- yanvar holatiga erkin iqtisodiy zona hududlarida qiymati 71.1 mln. dollarlik 18 ta loyihalar ishga tushirilib, 1624 ta yangi ish o‘rinlari yaratilgan.

2025 yilda umumiy qiymati 6,0 mln. dollarlik 2 ta loyiha ishga tushirilishi natijasida 201 ish o‘rinlari yaratilgan. Jumladan:

1. "IMZO-GLASS KHAREZM" MChJning qiymati 5.2 mln. dollarlik 100 ish o‘rinli “Toblangan oyna, deraza va eshik rom mahsulotlari ishlab chiqarish” loyihasi ishga tushirildi.

2. "LUXFABRIC" MChJning qiymati 0.8 mln. dollarlik 101 ish o‘rinli “Zamonaviy tikuvchilik fabrikasini tashkil qilish va har xil turdagi trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish” loyihasi ishga tushirildi.

2026-2027-yillarda qiymati 19,9 mln. dollarlik 5 ta loyiha ishga tushirilishi va 381 ish o‘rinlari yaratilishi rejalashtirilgan.

Bular:

1. “IBODULLAEVLAR” MChJning qiymati 0,6 mln. dollarlik 31 ish o‘rinli “Temir panelli isitish radiatorlarini ishlab chiqarish” loyihasi.

2. “Al-Jabr Kabel” MChJning qiymati 1.5 mln. dollarlik 45 ish o‘rinli “Emallangan va izolyatsiyalangan mis kabel mahsulotlari ishlab chiqarish” loyihasi.

3. “HKJ ELECTRIC” MChJning qiymati 1,3 mln. dollarlik 150 ish o‘rinli ““Damas” va “Labo” avtomobillari uchun simlar to‘plami ishlab chiqarish” loyihasi.


4. “NAFIS-DUNYO-TO‘RTLARI” OKning qiymati 0,5 mln. dollarlik 50 ish o‘rinli “Qandolat va yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish” loyihasi.

5. “KING LONG KHOREZM” MChJning qiymati 16 mln. dollarlik 105 ish o‘rinli “Zamonaviy mikroavtobuslar ishlab chiqarish” loyihasi.

Ishlab chiqarish va eksport bo‘yicha 2026 — yil 1 — yanvar holatiga “Hazorasp” EIZning ishtirokchilari tomonidan 493,3 mlrd so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan va 14,417 mln. dollarlik mahsulotlar eksportga yo‘naltirilgan.

Bo‘sh yer maydonlar bo‘yicha EIZ hududlarida loyiha joylashtirish mumkin bo‘lgan 228,25 gektar yer maydon mavjud bo‘lib, bugungi kunda jami bo‘sh yer maydon 170,1 gektarni tashkil qiladi.

Auksion savdolariga chiqarilgan yer maydonlari bo‘yicha 2026 — yil yanvar holatiga “Hazorasp” EIZ hududlarida umumiy qiymati 1,203 mlrd dollarlik 34 ta loyihalar uchun 165,9 gektar yer maydonlari (97,53 %) 34 ta lotlarga bo‘lingan holda elektron-onlayn auksion savdolariga chiqarilgan.



1-rasm. Xorazm viloyatidagi MIZ ishtirokchilarining asosiy kapitalga investitsiyalari (mln so‘m)

Mazkur loyihalar amalga oshirilishi natijasida 4625 ta ish o‘rinlari yaratilishi rejalashtirilgan.

Bular:

1. Hazorasp tumani Aloqali ko‘l MFYda 144.4 ga
2. Tuproqqal’a tumani Yakkachiqir MFYda 21.5 ga

2.3.1-rasmda Xorazm viloyatidagi maxsus iqtisodiy zon (MIZ) ishtirokchilari tomonidan amalga oshirilgan asosiy kapital investitsiyalari hajmining 2019–2025-yillar kesimidagi dinamikasi aks ettirilgan. Grafik ma’lumotlariga ko‘ra, investitsion faollik yillar davomida keskin tebranishlarga ega bo‘lgan va barqaror o‘shish tendensiyasi hali to‘liq shakllanmaganini ko‘rish mumkin.

2019-yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 60 102,2 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilda bu ko‘rsatkich keskin kamayib, atigi 123,7 mln so‘mni tashkil qilgan. Bunday pasayish, avvalo, global pandemiya sharoitida investitsion loyihalarning vaqtincha to‘xtatilishi, tashqi kapital oqimining qisqarishi hamda iqtisodiy noaniqlikning ortishi bilan izohlanishi mumkin.

2021-yilda esa investitsiyalar hajmi rekord darajaga, ya’ni 118 938,8 mln so‘mga yetgan. Bu davrda iqtisodiy faollikning tiklanishi, yangi loyihalarning ishga tushirilishi va davlat tomonidan investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan qo‘llab-quvvatlash choralari muhim omil bo‘lgan. 2022-yilda ko‘rsatkich 13 524 mln so‘mgacha pasaygan bo‘lsa-da, 2023-yilda yana sezilarli o‘shish kuzatilib, 78 481,3 mln so‘mni tashkil etgan. Bu holat investitsion jarayonlarning davriy xususiyatga ega ekanini, ya’ni yirik loyihalarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

2024-yilda investitsiyalar hajmi 25 490,3 mln so‘mni tashkil etib, oldingi yilga nisbatan kamaygan. Bu esa MIZlarda yangi loyihalar sonining qisqarishi yoki mavjud loyihalarning yakunlanish bosqichiga o‘tganini anglatishi mumkin. 2025-yilning choraklari bo‘yicha ma’lumotlar mavjud emasligi investitsion jarayonlar monitoringini kuchaytirish zaruratini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalari Xorazm viloyatidagi MIZlarda investitsion faollik yuqori salohiyatga ega ekanini, biroq uning barqarorligi yetarli darajada ta’minlanmaganini ko‘rsatadi. Kelgusida investitsiyalarni diversifikatsiya qilish, uzoq muddatli strategik loyihalarni ko‘paytirish hamda innovatsion yo‘nalishlarni kengaytirish orqali investitsion jarayonlarning barqaror o‘shishini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorazm viloyatidagi MIZning innovatsion faollik ko‘rsatkichlarini tahlil qilganda, asosiy omillar quyidagilardan iborat:

1. Investitsiyalar va moliyaviy rag‘batlar – MIZ doirasida davlat tomonidan berilayotgan soliq va bojxona imtiyozlari innovatsion loyihalarga jalb qilinayotgan investitsiyalarni oshirdi.
2. Texnologik yangilanishlar – Texnoparklar va MIZ korxonalari yangi texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirmoqda.
3. Startaplar va ilmiy-tadqiqot faoliyati – Texnoparklar startap ekotizimini rivojlantirish va ilmiy markazlar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali innovatsion mahsulotlar yaratmoqda.
4. Ish o‘rinlari sifati – Innovatsion faoliyat yangi yuqori malakali ish o‘rinlarini yaratishda asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda, bu esa mahalliy iqtisodiyotga yuqori qo‘shilgan qiymat kiritadi.

Shu bilan birga, MIZ innovatsion faolligini oshirishda ayrim cheklovlar mavjud: yuqori malakali kadrlarning yetishmasligi, ilmiy-tadqiqot infratuzilmasining nisbatan past darajada rivojlanganligi va ba’zi korxonalarda texnologiyalarni joriy etishda moliyaviy cheklovlar mavjudligi. Shu sababli, kelajakda innovatsion ko‘rsatkichlarni yaxshilash uchun investitsiyalarni oshirish, ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy ta’lim muassasalari bilan integratsiyani kuchaytirish va kadrlarni tayyorlash zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining samaradorligi faqat investitsiyalar hajmi yoki ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari bilan emas, balki ularning ijtimoiy natijalari va institutsional muhit sifati bilan ham belgilanadi. MIZlar hududiy bandlikni oshirish, aholi daromadlarini ko‘paytirish va infratuzilmani rivojlantirish orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Biroq ularning uzoq muddatli samaradorligi boshqaruvning shaffofligi, normativ-huquqiy barqarorlik va investorlar uchun qulay institutsional sharoit mavjudligiga bevosita bog‘liq.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, MIZlar samaradorligini baholash uchun ijtimoiy va institutsional ko‘rsatkichlarni qamrab olgan integrallashgan baholash tizimini joriy etish; ikkinchidan, boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish orqali shaffoflikni oshirish; uchinchidan, hududiy mehnat bozorini rivojlantirish va mahalliy kadrlar salohiyatini mustahkamlash; to‘rtinchidan, davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini natijadorlik tamoyili asosida takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Bank. (2023). *Special Economic Zones: An Operational Review of Their Impacts*. Washington, DC.
2. OECD. (2022). *Special Economic Zones and Institutional Quality*. Paris.
3. UNCTAD. (2021). *World Investment Report 2021: Investing in Sustainable Recovery*. Geneva.
4. Farole, T., & Akinci, G. (2022). *Special Economic Zones: Progress, Emerging Challenges and Future Directions*. World Bank Publications.

UDK:332

**HUDUDLARARO IQTISODIY NOMUTANOSIBLIKNI TARTIBGA SOLISHDA
INVESTITSION YONDASHUVLARNING SAMARADORLIGI**

**ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПОДХОДОВ В РЕГУЛИРОВАНИИ
МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДИСПРОПОРЦИИ.**

**THE EFFECTIVENESS OF INVESTMENT APPROACHES IN ADDRESSING
INTERREGIONAL ECONOMIC DISPARITIES.**

Duvshatova N.K. Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Hududlar kesimida investitsiya oqimlari, iqtisodiy o‘shish va bandlik ko‘rsatkichlari asosida nomutanosiblik darajasi baholanadi. Investitsion siyosatning maqsadli va differensial yondashuvlari hududiy rivojlanishga ta’siri aniqlanadi hamda resurslarni oqilona taqsimlash bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: hududlararo iqtisodiy nomutanosiblik, investitsion yondashuvlar, hududiy rivojlanish, investitsiya siyosati, iqtisodiy tafovutlar, barqaror iqtisodiy o‘shish, mintaqaviy iqtisodiyot, investitsiya samaradorligi.

В данной статье анализируется эффективность инвестиционных подходов в регулировании межрегиональной экономической диспропорции. На основе показателей инвестиционных потоков, экономического роста и занятости по регионам оценивается уровень межрегиональных различий. Определяется влияние целевых и дифференцированных инвестиционных подходов на региональное развитие, а также разрабатываются научные предложения по рациональному распределению инвестиционных ресурсов.

Ключевые слова: межрегиональная экономическая диспропорция, инвестиционные подходы, региональное развитие, инвестиционная политика, экономические различия, устойчивый экономический рост, региональная экономика, эффективность инвестиций.

This article analyzes the effectiveness of investment approaches in regulating interregional economic disparities. The level of regional inequality is assessed based on indicators such as